

**JUMBOQ ORTIDAGI HAYOT YOXUD ANGLAB YETILGAN
FALSAFA**

Sindarova Dilbar Sobir qizi

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
o‘zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: Yosh nosirlar ijodi hozirgi adabiy jarayonda o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalardan biridir. Ushbu maqolada umidli ijodkor Aziz Norov qalamiga mansub “Eynshteyn jumbog‘i” hikoyasi tahvil etildi. Ustoz adabiyotshunos olim va adiblar fikr-mulohazalariga tayanilgan holda hikoya mohiyatini ochib berishga harakat qilindi.

Kalit so‘zlar: absurd falsafasi,badiiy detal, sarlavha, peyzaj, tashbeh, ilk jumla, metafora.

Ijod olami...bu qutlug‘ dargoh ostonasidan hatlamoq,qadam qo‘ymoq har kimga ham nasib etavermaydi, bu ulkan mas’uliyat, el dard-u quvonchini bo‘yniga olmoq, hayotiy maslagiga aylantirmoq bilan teng. Badiiy so‘z aytish jarayoni chindan-da og‘ir,bunda ijodkor otilajak ta’na-toshlari-yu maqtovlariga ham tayyor turmog‘i lozim. Nodirabegim Ibrohimova, Nurilla Chori, Xoliyor Safarov, Javlon Jovliyev, Manzura Abdullayeva, Bayram Ali va Azizbek Norov kabi nosirlarni bugungi adabiy jarayonda ijod olamiga o‘z so‘zi,uslubi bilan kirishga harakat qilayotgan, yosh, iste’dodli ijodkorlar sifatida e’tirof etish mumkin. Muhimi bu yosh nosirlar o‘zlarini bugungi davrda “ijodkor” deb baholovchi qalam sohiblari orasida urchiyotgan siyqa mavzular, ko‘r -ko‘rona taqlid, esda qolgulik obraz va ifoda yo‘qligi kabi illatlardan qochishga, bu qobiqni yorib chiqishga intilmoqdalar.

Aziz Norov shu kabi umidli yozuvchilaridan biridir.Nazar Eshonqul,Sobir O‘nar kabi yozuvchilarimiz e’tiboriga tushgan ijodkor, darhaqiqat, o‘z nasri bilan tezda kitobxonlar mehrini qozondi. “Izlam” turkumi doirasida e’lon qilingan “Azal va abad yo‘li” qissasi orqali ijodkor auditoriyasiga qiziqish ortdi. Aziz Norov umidli, iste’dodli nosir sifatida hikoya janriga oid salmoqli mashqlari bilan “Yoshlik” jurnalidagi ilk chiqishlaridan oq ustoz yozuvchi Sobir O‘nar e’tiboriga tushgan edi: “Aziz boshlovchi havaskor emas,yozish malakasi borasida allaqachon “aql tishi chiqqan”. Shu bois dabdurustdan unga aql o‘rgatib bo‘lmaydi”. [Norov A. 2:3] Ijodkor qalamiga mansub “Eynshteyn jumbog‘i” hikoyasi ana o’sha “aql tishi chiqqan”, tasavvur o‘yinlarini xush ko‘rvuchi yosh qalam sohibi ijodining go‘zal namunasidir.Muallif bunda noodatiy mavzu va g‘oya topishga intiladi,asar qahramoni Azimjon bo‘lib, asar davomida uning bir jumboq sababli barbod bo‘lgan hayoti,oilasi haqida hikoya qilinadi. Eynshteyn jumbog‘iga yechim topish uchun yaqindagina erishilgan bo‘lim boshlig‘i lavozimidan,so‘ngra butkul ishidan, sevgan ayoli Malikadan ayrıldi, o‘n olti yil yil davomida jumboqqa yechim topish uchun hayotini qanday boy berganligini ham anglamaydi, tushunganida esa kech bo‘ladi. Azimjon shu o‘tgan vaqt oralig‘ida tanib bo‘lmas holga kelib,uyini sotishga-da

majbur bo‘ladi, so‘ng bir xonali uy (aslida kulbadan farqi yo‘q) sotib olib,yangi uyida yashay boshlaydi. Ikkinci bor sotib olingan bu uy xronotopi Azimjonning boy berilgan hayotini ifodalovchi ramz vazifasini bajaradi.

Bayon tilida roviy va qahramon nutqi o‘zaro ko‘chib turadi. Aziz Norov ijodi haqida so‘z ketar ekan, muallifning xos bir uslubi shakllanganini aytib o‘tmoq zarur,ijodkor Sharq-u G‘arb adabiyotidan yaxshigina xabardor bo‘lish bilan birgalikda metafora, tashbeh, tamsil san’atlaridan mahoratlari darajada foydalana oladi, ba’zida muallif qo‘llagan o‘xshatishlar kitobxonga zavq beradi. Nazar Eshonqulning quyidagi fikrlari ham fikrimizni tasdiqlaydi: “Uning metaforaga, tashbeh-u qochirimlarga boy ifoda usuli, xayoliy badiiy mushohadasi bundan darak berib turibdi” [<https://telegra.ph/Nazar-Eshonqul-Azal-va-abad-qissasi-haqida>]. Jumladan, hikoyada quyidagicha tashbehlari qo‘llanilib, asar badiiy tilini yanada sayqallagan:

“Samoning par yostig‘i teshilganday laylakqor yog‘ardi”, “Stolning tevarak atrofini don cho‘qiyotgan jo‘jalarday g‘ijimlangan qog‘ozlar bosib ketgandi.[Norov A .2:15].

Muallif mahorati shu darajadaki, asarda Azimjonning rafiqasi Malikaning ikki bora hayratga tushish sahnasi uchrab, adib har ikki holat uchun ham o‘ziga xos tashbehlari topadi: “Malika oshxonasi ostonasida burchakka suyab qo‘yilgan polyuvgichday qaqqayib erini biroz kuzatib turdi”, “...eshik bo‘sag‘asida xuddi suratga tushayotgandek qotib qoldi”. [Norov A.2:15] Shuningdek, adib hikoya davomida oila a’zolaridagi evrilishlarni uzundan uzun bayonlarda ifodalashni istamaydi. Birgina “Malika sabrdan sarg‘ayishni ma’qul ko‘rdi” jumlesi bilanoq Azimjonning ayoliga bo‘lgan munosabatini o‘zgarib qolganligiga ishora qiladi.

Nosir ijodidagi yana bir o‘ziga xoslik bu ilk jumla shakllarining ko‘pincha peyzaj bilan boshlanmasidir. “Azal va abad yo‘li” qissasi, “Zulmat va ziyo” va ayni tahlilga tortilayotgan hikoyada ham fikr tasdig‘ini ko‘rish mumkin. Eynshteyn jumbog‘i esa hikoya davomida asarda badiiy detal vazifasini bajaradi. Ushbu badiiy detal vositasini ulug‘ yozuvchi, hikoyanavis Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasidagi anor detaliga qiyoslash mumkin. Badiiy detal nafaqat keyingi voqealarni harakatlantirish, ishora bilan birgalikda ramziy vazifa ham bajargan. Xuddi Abdulla Qahhor hikoyasidagi anor detali obraz darajasiga ko‘tarilgandek, jumboq detali ham ma’lum ma’noda obraz darajasiga ko‘tariladi. Ushbu jumboq hayotda har bir insonga yuboriluvchi sinov ramzini o‘zida mujassam etadi.

Badiiy asar kompozitsiyasida ma’lumki, epigraf, peyzaj, portret, detal, interiyer kabi komponentlar bilan birgalikda sarlavha ham o‘zaro poetik munosabatga kirishib, muallif va asar konsepsiyasini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hikoyaga qo‘yilgan sarlavha ham, demakki, ma’lum bir konsepsiyanini o‘zida

aks ettiradi. Sarlavha hikoya tarkibidan o‘sib chiquvchi sarlavhalar tasnifidagi detal-sarlavha turiga mansubdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hikoyadagi badiiy detal o‘zida bir qancha vazifalarni mujassam etgan.

Hikoya garchi yangi g‘oya, ifoda uslubida bo‘lsa-da, ba’zi kamchiliklarni uchratish mumkin. Adabiyotshunos olim I.Yoqubov: “Sharq adabiyoti hamisha fikr va amalda go‘zallik hamda insoniylikni ulug‘lash, o‘z- o‘zini yengish va anglash, umidni so‘ndirmaslik bilan mashg‘ul bo‘lib kelayotganini eslash bilan kifoyalanamiz”, deganlarida tan olmoq kerakki, haq edilar. [Yoshlik, 2021,11-12-son] Chunki hikoyada modernizm oqimlaridan biri bo‘lmish absurdizmga mahliyolik bor. Alber Kamyu asarlaridagi absurd falsafani aynan hikoya so‘ngida ilg‘ash mumkin.Hayotni, inson yashashini, barcha narsani ma’nisiz deb topish, tushkunlik aynan shu falsafa asosidir. Asar qahramoni Azimning hayoti avvallari rangli bo‘yoqlarda aks etgan bo‘lsa, hozir uning taqdir musavviri faqat qora ranglardan foydalanadi. Azim birligina keraksiz, jo‘n jumboq sababli o‘z vaqtida “daho”, “tirik ensiklopediya” deb ulug‘langan bir inson o‘laroq, unga yechim topmoqchi bo‘ldi, u oilasi, insoniyligidan ko‘ra manmanlik, xudbinligini yuqori qo‘ydi, alaloqibat, umrini boy berdi, shu vaqtgacha qilgan ishlari-yu amallari ahmoqgarchilik bo‘lib chiqdi, jumboq ham birligina yordamchi so‘z vositasida o‘z-o‘zidan topildi-qoldi, ammo Azimning hayot ranglari qoradan boshqasiga o‘zgarmadi. Hikoya shu kabi tushkun kayfiyat bilan yakunlanar ekan, nazarimizda, badiiy adabiyotdan bu safar go‘zallik, estetik zavq olish yiroqlashgandek tuyuladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, badiiy asarni har bir inson dunyoqarashi, nuqtayi nazariga ko‘ra talqin etadi, kimdir hikoyani absurdizm singdirilgan, tushkunlik, hayotni bemanibor deb topish g‘oyalari mujassam deya baholasa, yana kimdir inson hayotidagi kurash jarayonida antivirus sifatida immunitet hosil qilish uchun ahamiyatli deya baholashi mumkin. Qanday qaror qabul qilishni esa kitobxonga qoldirgan ma’qul. Muhimi yosh, iste’dodli yozuvchi Aziz Norov adabiy jarayonda o‘z aytari, uslubi bo‘lgan umidli ijodkor ekanligini nafaqat quyidagi asar, balki boshqa ijod namunalari bilan ham isbotlab bera olmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Boboyev T.Adabiyotshunoslik asoslari.-Toshkent:O‘zbekiston,2002.
2. Norov A. “Eynshteyn jumbog‘i” hikoyalar.-Toshkent:Adabiyot,2020.
3. Norov A. Eynshteyn jumbog‘i. “Yoshlik” jurnali,(2019),5-son.
4. Norov A. “Azal va abad yo‘li” qissa va hikoyalar.-Toshkent:Akademnashr,2022.
5. Yoqubov I.Badiiy so‘z aytish mas’uliyati.“Yoshlik” jurnali,(2021),11-12-son.